



KO'RINISHNING BIR QISMINI BILAN QIRQIMNING BIR QISMINI BIRLASHTIRIB TASVIRLASH.

Quyidagi detal ikkita simmetriya o'qqa ega. Bunday detallarda standartga muvofiq qirqimning yarmi bilan ko'rinishning yarmini birlashtirib tasvirlash mumkin. Shunday qilinganda detalning tashqi qiyofasi bilan ichki tuzilishini bir vaqtning o'zida ko'rsatish mumkin bo'ladi. Shunda sirdagi teshiklardan oldingisi to'g'ri to'rtburchak, ikkinchisi silindrik ekanligi ham ravshan bo'lib qoladi. Bunday simmetriya o'qiga ega bo'lgan detal chizmasini bajarishda ko'rinish bilan qirqimni birlashtirish natijasida ko'rinasmas chiziqlarni tasvirlashga hojat qolmaydi, chunki detalning ichki ko'rinishlari endilikda huddi tashqi ko'rinish kabi aniq va ravshan bo'lib qoldi (*1-shakl*).



1-shakl

Endi e'tiborni *2-shaklga*, *a* da tasvirlangan chizmaga qaratadigan bo'lsak, bu yerda detalning ko'rinishlarida qirqim tadbiq qilinmagan. Huddi shu detalning frontal qirqimi *2-shakl*, *b* da ko'rsatilganligining guvohi bo'lamiz. Endi shu ikkala chizmadan bitta chizma hosil qilish uchun *2-shakl*, *a* dan ko'rinishning simmetriya o'qidan chap tomonagi bo'lagini hamda ikkinchi chizma (*2-shakl*, *b*)dan esa simmetriya o'qidan uning o'ng bo'lagini birlashtirib, *2-shakl*, *c* da tasvirlangan chizma ko'rinishini hosil qilamiz. Natijada ko'rinishning yarmi bilan qirqimning yarmi birlashtirildi. Bunday qirqimlarni chorak qirqim deb ham atash mumkin.




Ularda:

1. Ko‘rinish va qirqim chegaralari simmetriya o‘qi, ya’ni shtrix-punktir chiziq bilan ifoda qilinadi.
2. Ko‘rinish tomonidagi detalning ichki tuzilishini ko‘rsatuvchi shtrix chiziqlar o‘chirib tashlanadi.
3. Qirqim doimo vertikal simmetriya o‘qining o‘ng tomonida yoki gorizontal simmetriya o‘qining ostida joylashadi. Boshqacha qilib aytganda, chapdan o‘ngga qarab yoki yuqoridan pastga qarab, avval ko‘rinish, keyin esa qirqim tasvirlanadi.

Bu yerda detalning ustdan ko‘rinishiga o‘zgartirish kiritilmaydi. Chunki detalning ustdan ko‘rinishida ko‘rinmas chiziqlar yo‘qligi uchun detalning bu ko‘rinishiga hech qanday o‘zgartirish kiritilmaydi.

Ba’zida, simmetriya o‘qiga ega bo‘lgan detal chizmalarini bajarish jarayonida, simmetriya o‘qi ustiga qirra to‘g‘ri kelib qolgan hollarni uchratamiz. Xo‘s, bunday vaziyatda qirqim qanday bajariladi degan savol tug‘iladi. Chunki simmetriya o‘qi ustiga tushib qolgan qirra detalning qirqimini bajarishda ba’zi-bir tushunmovchiliklarga duch kelaish mumkin. Bunday hollarda, o‘sha qirra ingichka to‘lqin chiziqda qirqilmagandek, ya’ni bir bo‘lagi sindirib olingandek qilib ko‘rsatiladi (*3-shakl, a. b*) yoki darslikdagi *1.27-shakl* da tasvirlanganidek ochib qo‘yiladi. Bunday qirqimni ko‘rinishning bir qismi bilan qirqimning bir qismi birlashtirilgan deyiladi.



3-shakl

Yarim ko‘rinishni yarim qirqim bilan qo‘shib tasvirlanganda, ba’zi o‘lchamlarning strelkalari bir tomonlama qo‘yiladi. Lekin o‘lcham qiymati to‘liq yoziladi. Chunki detalning ichki ko‘rinishlaridagi o‘lchamarini quyish jarayonida simmetriya o‘qining chap tomonidagi ichki ko‘rinishidan chiqarish chizig‘ini qo‘yish mumkin emas, chunki detalning tashqi ko‘rinishi chiqarish chizig‘i qo‘yiladigan ikkinchi tomonini to‘sib turadi. Shuning uchun o‘lcham chizig‘ining ikkinchi uchida strelka tasvir-lanmaydi. Strelka qo‘yilmagan tomoni simmetriya o‘qdan biroz o‘tgan bo‘ladi. Masalan, darlikdagi *1.27-shakl* da ko‘rsatilganidek $\varnothing 14$ va $\varnothing 20$ dagi o‘lcham chiziqdari kabi tasvirlanadi.

Xullas, ko‘rinishning yarmi bilan qirqimning yarmini yoki ko‘rinishning bir qismi bilan qirqimning bir qismini birlashtirib tasvirlashda detalning ham tashqi, ham ichki ko‘rinishlari haqida to‘liq ma’lumot berish mumkin ekan.